

ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASI

Tosheva Dildora Iskandarovna

BuxDPI "Pedagogik ta'lim"

kafedra dotsenti p.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. Maqolada jadid namoyondalaridan Abdurauf Fitratning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Jahonda globallashuv davrida xatarli va tahdidli mafkuraviy jarayonlar kechayotgan hozirgi davrda ta'limni milliy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya va ma'rifatparvar siymolar merosi asosida kelajagimiz davomchilari bo'lgan yosh avlodni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb vazifalardan biridir.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, globallashuv, jadid, ijtimoiy, madaniy hayot.

Аннотация. В статье научно обоснованы педагогические и воспитательные взгляды Абдурауфа Фитрата, одного из представителей джаджидов. В современную эпоху, когда в мире, в эпоху глобализации, происходят опасные и угрожающие идеологические процессы, остро стоит вопрос воспитания молодого поколения, являющегося наследниками нашего будущего, в духе толерантности, основанном на наследии национальных ценностей, просветительских деятелей, является одной из актуальных задач. Ключевые слова: образование, воспитание, глобализация, современность, социальная, культурная жизнь.

Abstract. The article scientifically substantiates the pedagogical and educational views of Abdurauf Fitrat, one of the representatives of the Jajids. In the modern era, when dangerous and threatening ideological processes are taking place in the world, in the era of globalization, the issue of educating the younger generation, who are the heirs of our future, in a spirit of tolerance, based on the heritage of national values, educational figures, is one of the urgent tasks. Keywords: education, upbringing, globalization, modernity, social, cultural life.

XIX asr oxirlaridan ma'rifatparvarlik oqimi sifatida paydo bo'lgan jadidchilik harakati, XX asr boshlaridan e'tiboran o'zining tadrijiy rivojlanish bosqichida yangi bir davrga kirdi. Bu davrda jadidchilik o'z oldiga keng islohotchilik maqsadlarini qo'ygan ijtimoiy-siyosiy harakatga aylandi. Jadidchilik harakati xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lsada, afsuski yaqin-yaqingacha uning o'zbek xalqi tarixidagi o'rni va roli ob'ektiv ravishda baholanmasdan kelindi. Bu masalada fanga birmuncha zid bo'lgan turli fikrlar mavjud edi.

Jadidchilik harakati xususida xolis fikrlar yozish sovet tuzumi davrida ta'qiqlab qo'yilgandi. **Jadidchilik** - davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan g'oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan tizim ekani barchaga ayon. Shunday ekan, bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyat katta rol o'ynagan, Turkistondek ulkan tarixiy bir o'lkada, ko'p asrlar davom etib kelgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni g'arb va Ovrupa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko'zlaganini hamda XX asr

tongidan yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini izlaganini, istibdod sharoitida o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lida kurashga kirishganini ko'rsatuvchi sertarmoq va murakkab jarayonlarni o'zida istifoda etdi [1, 24-b.]. Bu jarayonlarni o'rganish, tadqiq etish esa oson ish emas. Jadidlar hararakati va ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy zaminda tutgan o'rni, shuningdek, jadidlar maktabining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Jadidlar Vatan istiqloli va istiqboli uchun fidoyilik namunalarini ko'rsatgan shaxslardir. Ularning ko'rsatgan jasoratlari, o'z mafkurasi va maqsadi yo'lidagi sobitligi, iymon – etiqodiga sadoqati, Vatan, Yurt uchun fidoyiliklarini namuna sifatida ko'rsatish orqali yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'usini tarbiyalash kabi vazifalarni belgilaydi [2, 124-b.].

O'zbekistonning ilm-fan taraqqiyotida yoshlarda bag'rikenglik g'oyalarini singdirishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu vazifaning pedagogik asoslarini XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat (1884-1938) tomonidan 1914 yili yozilgan "Rahbari najot" asarida keng yoritib berilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur o'rinda uning tahliliga e'tiboringizni tortamiz. Fitratning fikricha, yuqorida qayd etilganidek, ta'lim va arbiyaning uch vazifasi mavjud: shaxsni tarbiyalash, oila instituti, umuminsoniy vazifalar.

Shaxsni tarbiyalash vazifalari "insonni muhofaza etish va taraqqiy toptirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan ishlar"dan iborat [3, 81-b.]. unda ijtimoiy pedagogik ta'lim shaxs o'zligini ("Men"tuyg'usini) shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratadi. Negaki shaxsning o'zligi kamol topsa "ham o'ziga, ham o'zgalarga foyda keltiradi". Allomalar merosi asosida ilm-ma'rifatga intilish, diniy va dunyoviy bilimlarni egallash muhim ahamiyat kasb etadi [4, 302 b.; 5, 364 b.]. Shu tariqa Fitrat birinchilardan bo'lib ijtimoiy ta'lim zimmasiga shaxsni ijtimoiy shakllantirish vazifasini qo'yadi [6, 2607-b.]. Shaxsning tarbiyalashda uni "yaxshi va yomonni farqlash"ga ko'niktirish muhim ahamiyatga ega. Fitrat buning uchun inson shaxsiga quyidagi uch quvvatni to'g'ri tarbiyalash vazifasini ta'kidlaydi: aqliy quvvat, shahvaniy quvvat, g'azab quvvati [3, 81-b.]. Bu masalani u barcha uchun nafaqat axloq farzi, balki din farzlaridan ham deb bildi. Bu masalada quyidagicha izoh berish kerak deb o'ylaymiz: birinchidan, aql, shaxvat va g'azab tuyg'ularini (quvvatlarini) tarbiyalash diniy manbalarimizga asoslangan pedagogika negizini tashkil qilgan, ikkinchidan, aql, shaxvat va g'azab tuyg'ularini to'g'ri tarbiyalash din asosi darajasiga ko'tarilishi zaruriyat sifatida belgilanadi, uchinchidan, aql, shaxvat va g'azab tuyg'ularini tarbiyalash bilan jamiyatda bag'rikeng, komil insonlarni kishilarni voyaga etkazishga erishiladi. Shu sababli Fitrat bu masalani quyidagicha izohlaydi: "Aql quvvatini isloh qilishda shunday hikmat borki, uning foydasi haqni botildan, qabohatni ezgulikdan va manfaatni zarardan farqlashga ega bo'lishdir. G'azab quvvatini isloh etish esa shijoatga olib keladi va bu insoniy sharafni isloh etishda, millat izzati va o'zni muhofaza etishda ko'rinadi". Shu tariqa Fitratning tizimlashtirishiga ko'ra, pedagogik ta'lim va tarbiya natijasida quyidagilarga erishiladi: aqlni o'stiradi, g'azabni tartibga soladi, haqgo'ylik, sog'lomlik, insoniylik, ezgulik, ko'rkamlik, millatparvarlik, manfaatdorlik, yaxshilik qilish, qadrni bilish kabi insoniy fazilatlarini

shakllantiradi.

Fitrat shaxs o'zligini isloh qilib, uni tarbiya vositasida voyaga etkazishni Vijdon ishi deb biladi. Bu o'ziga xos yondoshuv e'tibor bilan qabul qilinishi kerak. Negaki, hozirgi zamon pedagog olimlarning e'tiroficha, "vijdon – bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi va fe'l-atvori uchun oila, jamoat, jamiyat, millat hamda Vatan oldida ma'naviy mas'ullikni his etishdir" [7, 101-b.].

Fitrat yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash va ular ongi va qalbiga singdirish Aqlni rivojlantirish (o'stirish, tartibga solish, isloh qilish)da ko'radi va buni "vijdon vazifasi" deb ataydi: "Vijdon amri – bu har bir kishining o'ziga yuklangan vazifa va majburiyatlarni zamon va makonga qaramay sidqidildan bajarishidir" [6, 2608-b.]. E'tibor berilsa, bunda bir necha muhim fikrlar darj bo'lgan: birinchidan, aql vositasida har bir shaxsning shahvat va g'azab quvvatlaridan yuksalishi, ikkinchidan, bu bilan shaxsning jamiyat, millat va Vatan oldidagi vazifa va majburiyatlarni bajarishga kirishishi, uchinchidan, mazkur ishlarni vaqt va joy tanlamasdan amalga oshirish vijdoniy vazifadir.

Xulosa. Fitratning ijtimoiy pedagogik ta'limda shaxs o'zligini tarbiyalash vazifalariga doir yondoshuvlari yoshlarimizni vatanparvar, milliy ma'naviyatimizga hurmat, milliy g'urur, bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shamsutdinov R.T., Rasulov B.M. Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari). – Andijon: Meros, 1995.
2. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. – 210 b.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 5-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
4. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Fal.fan.dok. ilm.darajasini olish uchun dissertatsiya. – Toshkent 2021, 302 b.
5. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2019. - 364 b.
6. Abdusalilova Sh. Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlarida ijtimoiy pedagogik ta'lim vazifalari. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01/ 2022 ISSN: 2181-2608.
7. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.